INGLIZ-O‘ZBEK PARALLEL MATNLARIDA SEZGI SIFATLARINING SINONIMIK EKVIVALENTLIGI: MOSLASHTIRISH VA QAYTA TARJIMA TAHLILI

Pulatova Niso Shamuratovna
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek badiiy parallel matnlarida sezgi sifatlarining sinonimik ekvivalentligi tahlil qilinadi. Qayta tarjima va komponent tahlil asosida pungent – badbo‘y, achchiq – bitter – strong – hot, sharp – o‘tkir – keskin, strong – kuchli, sweet – issiq juftliklarida semantik torayish, prosodik asimmetriya va kontekstual sinonimiya holatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: parallel korpus, moslashtirish, qayta tarjima, kontekstual sinonimiya, semantik prosodiya, komponent tahlil.

Аннотация. В статье анализируется синонимическая эквивалентность прилагательных чувственного восприятия в английских и узбекских параллельных художественных текстах. На основе обратного перевода и компонентного анализа в парах pungent – badbo‘y, achchiq – bitter – strong – hot, sharp – o‘tkir – keskin, strong – kuchli, sweet – issiq выявлены случаи семантического сужения, просодической асимметрии и контекстуальной синонимии.

Ключевые слова: параллельный корпус, выравнивание, обратный перевод, контекстуальная синонимия, семантическая просодия, компонентный анализ.

Abstract. The article analyses the synonymic equivalence of sensory adjectives in English and Uzbek parallel literary texts. Using back translation and componential analysis, it identifies semantic narrowing, prosodic asymmetry and contextual synonymy in the pairs pungent – badbo‘y, achchiq – bitter – strong – hot, sharp – o‘tkir – keskin, strong – kuchli and sweet – issiq.

Keywords: parallel corpus, alignment, back translation, contextual synonymy, semantic prosody, componential analysis.

Kirish. Parallel korpusda sinonimik birliklarni aniqlash gaplar va so‘zlarni moslashtirish aniqligiga bog‘liq: gaplar noto‘g‘ri moslashtirilsa, leksik mosliklar, kollokatsiyalar va semantik munosabatlar ham noto‘g‘ri shakllanadi. W.A. Gale va K.W. Church modelida gaplar 1:1, 1:0, 0:1, 2:1, 1:2 va 2:2 nisbatlarda moslashtiriladi [6]. R.C. Moore gap uzunligiga va so‘zlar muvofiqligiga asoslangan usullarni birlashtirgan; muallif ma’lumotiga ko‘ra, gibrid usulning aniqlik (precision) xatoliklari 5–13 barobar, to‘liqlik (recall) xatoliklari 5–38 barobar kam bo‘lgan [8]. Biroq o‘zbek tili agglutinativ va SOV tartibli, ingliz tili esa analitik va SVO tartibli bo‘lgani uchun tokenlar soni mos kelmaydi: uch tokenli *has been working* o‘zbek tilida bitta token — *ishlayapti* bilan beriladi. Shu sababli gap uzunligiga tayanuvchi modellar o‘zbek-ingliz matnlari uchun qo‘shimcha semantik tahlilni talab qiladi.

Material va metodlar. Tadqiqot materiali ingliz va o‘zbek tillaridagi 20 ta badiiy asar va veb ma’lumotlaridan ajratilgan sezgi sifatlaridir. E.A. Nida ta’kidlaganidek, tillar o‘rtasida mutlaq muvofiqlik bo‘lishi mumkin emas [3, p. 156], shuning uchun tarjima “manba til xabarining eng yaqin tabiiy ekvivalenti”ga intiladi [3, p. 166]. Ekvivalentlik darajasi qayta tarjima (back translation) metodi bilan tekshirildi: tarjima dastlabki tilga qaytarilib, asliyat bilan qiyoslandi. Leksemalarning ma’no tarkibi komponent (semik) tahlil orqali aniqlandi.

Tahlil va natijalar. *1. Pungent – badbo‘y. Pungent* leksemasining asosiy semalari [+o‘tkir] va [+kuchli] bo‘lib, u *acrid*, *sharp* bilan sinonim qator hosil qiladi. *Badbo‘y* esa [+yoqimsiz] baholovchi semasiga asoslanadi va *foul*, *fetid* qatoriga mos keladi. Shu sababli *pungent smell* birikmasi *badbo‘y hid* deb o‘girilganda [+o‘tkir] va [+kuchli] semalari yo‘qolib, birlikning ma’no hajmi torayadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

2. Achchiq – bitter – strong – hot. B. Louw semantik prosodiyani leksemaga uning kollokatlari tomonidan singdiriladigan barqaror ma’no bo‘yog‘i sifatida ta’riflaydi [7, p. 157]. *Achchiq choy* birikmasi o‘zbek tilida ijobiy baholanadi, lug‘aviy muqobil *bitter tea* esa salbiy ma’no bo‘yog‘iga ega; shuning uchun uning tabiiy muqobili *strong tea* hisoblanadi. Inglizcha *hot* esa harorat va achchiqlik ma’nolarini birga ifodalaydi, o‘zbek tilida bu ma’nolar *issiq* va *achchiq* leksemalariga ajratilgan.

3. Sharp – o‘tkir – keskin. Sharp va *o‘tkir* jismoniy (*sharp knife — o‘tkir pichoq*) va aqliy (*sharp mind — o‘tkir aql*) sohalarda mos keladi; G. Lakoff va M. Johnson *He’s sharp* ifodasini “G‘OYALAR — KESUVCHI ASBOB” konseptual metaforasi namunasi sifatida keltiradi [2, p. 48]. Boshqa sohalarda *sharp* o‘zbek tilida *keskin* (*sharp turn — keskin burilish*), *tiniq* (*sharp image*) va *diyez* (*C sharp*) bilan beriladi (1-jadval).

1-jadval

Ingliz tilidagi sharp sifatining o‘zbek tilidagi muqobillari

Ma’no sohasi	**Ingliz tilida**	**O‘zbek tilida**
Jismoniy o‘tkirlik	sharp knife, sharp needle	o‘tkir pichoq, o‘tkir igna
Aqliy faoliyat	sharp mind, sharp wit	o‘tkir aql, o‘tkir zehn
Ta’m	sharp cheese, sharp vinegar	nordon-keskin ta’m (o‘tkir — achchiq-kuydiruvchi ta’m: o‘tkir qalampir)
Harakat va o‘zgarish	sharp turn, sharp rise	keskin burilish, keskin o‘sish
Tasvir	sharp image	tiniq tasvir
Ovoz	sharp sound	kuchli (keskin) ovoz
Musiqa termini	C sharp	do diyez

4. Strong – kuchli. Chinakam, so‘fida hajga borish niyati kuchli [4, p. 12] — *Truthfully, Razzoq-sufi’s desire to go on the hajj was strong* [5, p. 53]. Sifatlar darajasida to‘liq ekvivalentlik bor, biroq *niyat* so‘zi *desire* bilan berilgani uchun uning diniy konnotatsiyasi saqlanmagan.

5. Sweet – issiq. Nafasi buncha issiq, muncha mazalik! [4, p. 32] — *Her very breath is sweet! Enamoring!* [5, p. 69]. *Sweet* (ta’m) va *issiq* (harorat) tizim darajasida sinonim emas, lekin bu kontekstda [+yoqimli], [+ijobiy baho] semalari orqali kesishib, kontekstual sinonimiya hosil qiladi. M. Baker so‘z darajasidagi ekvivalentsizlikda qo‘llanadigan strategiyalar qatorida madaniy almashtirishni ko‘rsatadi [1]; tarjimon termal obrazni gustativ obraz bilan almashtirgan.

2-jadval

Parallel matnlarda aniqlangan tillararo munosabat turlari

Ingliz tilida	**O‘zbek tilida**	**Aniqlangan holat**
pungent (smell)	badbo‘y (hid)	Semantik torayish
strong / bitter	achchiq (choy)	Prosodik asimmetriya
hot (soup)	achchiq (sho‘rva)	Polisemantik asimmetriya
sharp (turn)	keskin (burilish)	Kollokatsion farq
strong (desire)	kuchli (niyat)	To‘liq ekvivalentlik (sifat), konnotatsiya yo‘qolishi (ot)
sweet (breath)	issiq (nafas)	Kontekstual sinonimiya

Xulosa. Ingliz va o‘zbek sezgi sifatlari ko‘p hollarda qisman mos keladi: tarjimada semantik torayish, prosodik asimmetriya va kontekstual sinonimiya yuzaga keladi. Natijalardan tarjima mashg‘ulotlarida va ingliz-o‘zbek parallel korpusini tuzishda foydalanish mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964.
4. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Cho‘lpon A.S. Night and Day: A Novel / transl. by C. Fort. – Boston: Academic Studies Press, 2019.
6. Gale W.A., Church K.W. A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora // Computational Linguistics. – 1993. – Vol. 19, № 1. – P. 75–102.
7. Louw B. Irony in the Text or Insincerity in the Writer? The Diagnostic Potential of Semantic Prosodies // Text and Technology: In Honour of John Sinclair / ed. by M. Baker, G. Francis, E. Tognini-Bonelli. – Amsterdam: John Benjamins, 1993. – P. 157–176.
8. Moore R.C. Fast and Accurate Sentence Alignment of Bilingual Corpora // Machine Translation: From Research to Real Users: Proceedings of AMTA 2002 / ed. by S.D. Richardson. – Berlin; Heidelberg: Springer, 2002. – P. 135–144.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.